

O'zbekiston-Rossiya: ilm-fan sohasidagi hamkorlik

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti Rossiya Federatsiyasining turli muassasalari bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Masalan, Institutda ishlab chiqiladigan Allapinin preparati 2008-yilda Rossiyada ro'yxatdan o'tgan va uni etkazib berish bo'yicha eksport shartnomasi tuzilgan. Bu shartnoma har yili yangilanib boriladi. Shuningdek, galantamin gidrobromid hamda ekdisten preparatlari uchun Rossiya Federatsiyasi guvoohnomasi olingan. Ushbu Allapinin, galantamin gidrobromidi, ekdisten va biologik faol qo'shimcha - eksumid preparatlari tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun Rossiya Federatsiyasining dori-darmonlar davlat reestriga kiritilgan.



Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida ro'yxatdan o'tish uchun Institutda ishlab chiqilgan yangi antiaritmik preparat - aksaritminin moddasi bo'yicha dastlabki ishlar olib borilmoqda.